

# ELEKTRON – KUTUBXONA TIZIMI “Консультант студента” talabalar elektron kutubxonasi



**ELEKTRON - KUTUBXONA TIZIMI “Консультант студента” talabalar elektron kutubxonasi -** Ko'p qirrali ta'limiy elektron resurslar bazasi bo'lib, o'z ichiga o'quv adabiyotlari va oliy o'quv yurtlarining barcha yo'nalishlari talabalariga mo'ljallangan qo'shimcha materiallarni oladi.

## Asosiy xususiyatlari:

- Nashrlarning umumiy soni — 22 000 dan ziyod
- Darslik va o'quv qo'llanmalar — 12 000 dan ziyod
- Monografiyalar — 7 000 dan ziyod

Ushbu elektron kutubxona o'z ichiga quyidagi fan soxalari bo'yicha o'quv adabiyotlari jamlanmasini oladi:

- **Архитектура и строительство** - (Arxitektura va qurilish)
- **Горное дело** - (Tog' ishlari)
- **Деловая литература** - (Ishbilarmonlar uchun adabiyotlar)
- **Железнодорожный транспорт** - (Temir yo'l transporti)
- **Иностранные языки** - (Xorijiy tillar)
- **Информационные технологии** - (Axborot texnologiyalari)
- **Медицина** - (Tibbiyot)
- **Психология** - (Psixologiya)
- **Сельское хозяйство** - (Qishloq xo'jaligi)
- **Физико-математические науки** - (Fizika-matematika fanlari)
- **Филология** - (Filologiya)
- **Энергетика** - (Energetika)
- **Экономика** - (Iqtisod)
- **Юриспруденция** - (Xuquqshunoslik)

## “Консультант студента” ELEKTRON - KUTUBXONA TIZIMIdan foydalanish bo'yicha YO'RIQNOMA

- Internet - brauzerdan saytning manzilini qidirish satriga [www.studentlibrary.ru](http://www.studentlibrary.ru) (“Консультант студента” ga kirish uchun) manzilni yozib, **SIZ** elektron resursning boshlang'ich sahifasiga kirasiz va u yerdan «**регистрация на сайте - saytda ro'yxatdan o'tish**” satrini tanlaysiz.
- «**регистрация на сайте - saytda ro'yxatdan o'tish**” shaklini, sinchkovlik bilan hech bir oynachalarni o'tkazib yubormagan holda to'ldirasiz.
- Bu yerda **SIZ, chegaralangan hajmda katalogni ko'rishingiz yoki alohida kitoblarni** o'qishingiz mumkin bo'ladi.
- Shundan so'ng, **SIZ, “KATALOG” tugmachasini** bosasiz, **sahifada fan yo'nalishlari** ochiladi.
- O'zingizga kerakli **Fan soxasini** tanlab olasiz. **Sahifada, SIZ tanlab olgan soha bo'yicha kitoblar ko'rinadi.**
- Kerakli kitobning sarlavxasi ustiga sichqoncha bilan bosasiz, **ЧИТАТЬ ОНЛАЙН**

**tugmachasi** chiqadi, ushbu tugmachani bossangiz, kitobning 1-beti ochiladi.

- Sahifaning pastki qismida **ПРОСМОТР в виде PDF tugmachasi** mavjud bo'lib, ushbu tugmacha bosilgandan so'ng, **kitobning betlari PDF ko'rishga** keladi va uni ko'chirish imkoni paydo bo'ladi.
- **Izoh : Kitobni to'liqligicha ko'chirish** imkoni mavjud emas, **-1 betdan ko'chirib olish** mumkin bo'ladi.

Mustaqil ravishda o'zingizga **(28-belgidan ko'p bo'lmagan - lotin harflari yoki sonlardan tashkil topgan)** foydalanuvchilik nomini va **(6 - tadan kam bo'lmagan va 28-belgidan ko'p bo'lmagan - lotin harflari yoki sonlardan tashkil topgan)** parolni belgilaysiz.

Shundan so'ng, maxsus oynachaga rasmdagi sonlarni kiritib, sahifaning tagida joylashgan **"Зарегистрироваться - Ro'yxatdan o'tish"** tugmacha-sini bosasiz va kutubxonaning birinchi sahifasiga kirasiz.



**Axborot -resurs markazi**